O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 13 - sentabr 235-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 18-avgustdagi 394-10-0-Q/23 qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-iyundagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlariga nisbatan xususiy mulkchilik instituti joriy etilishi va mulk huquqining daxlsizligiga oid qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 99-sonli Farmoni hamda shu asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 18 avgustdagi 394-10-0-Q/23 qarori** ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6,25-moddalriga asosan **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-iyundagi 99- sonli Farmoni hamda shu asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 18-avgustdagi 394-10-0-Q/23 qarori** ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu Farmon bilan: O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-noyabrdagi 728-sonli “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinib, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlariga nisbatan xususiy mulkchilik instituti joriy etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 198-sonli Farmoni bilan yer maydonlari

jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi munosabati bilan zararlarning o‘rnini jismoniy va yuridik shaxslarga qoplash bo‘yicha jamg‘armalarning vazifalari kengaytirilib, ular negizida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha respublika va hududiy maqsadli jamg‘armalar tashkil etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 1-ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilganligi:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlarini mulk va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali berish (realizatsiya qilish);

yer maydonlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajratishni nazarda tutuvchi tartiblar, imtiyoz va istisnolarni qonunchilikdan to‘liq chiqarib tashlash;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlarini xususiylashtirish va ijaraga berishdan tushadigan mablag‘larni taqsimlashning yagona tartibini belgilash;

jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha respublika va hududiy maqsadli jamg‘armalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunosti hujjatlarini takomillashtirish;

yer to‘g‘risidagi qonunosti hujjatlarida o‘zaro nomuvofiqliklarni bartaraf etish ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlari 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotganganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur Farmonning 1-2-ilovalaridagi o‘zgartirishlar kiritilganligi inobatga olinsin va ushbu qaror ijrosi yuzasidan qabul qilingan hujjatlar o‘zgartirish bo‘yicha o‘qilsin hamda bekor qilinsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**